9-SINF O‘QUVCHILARINING YOZMA NUTQ KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qo‘qon davlat universiteti magistranti

Jalolova Shaxloxon Baxtiyorjon qizi

Shaxlojalolova9703@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 9-sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishning nazariy hamda amaliy masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni, nutqni yozma shaklda to‘g‘ri bayon etishni va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlovchi metodlar keltirilgan. O‘y-fikrlarni qog‘ozda aks ettirishni bexato darajaga olib chiqish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yozma nutq, 9-sinf o‘quvchilari, savodxonlik, lisoniy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, esse, bayon, ijodiy yondashuv.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical aspects of developing and improving the writing skills of ninth-grade students. It also presents methods that support logical thinking, the accurate expression of ideas in written form, and the effective use of modern pedagogical technologies. Recommendations are provided for improving students’ ability to express their thoughts in writing accurately and coherently.

Keywords: Written speech, ninth-grade students, literacy, linguistic competence, innovative technologies, essay, written composition, creative approach.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma’lum qismini ta’limni rivojlantirish egallaydi. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonning ustuni — bilimli yoshlar, uning poydevori — ta'lim va

tarbiyadir”1. Ushbu strategik maqsadlardan kelib chiqib, ona tili ta'limining bosh maqsadi o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni, jumladan, yuksak muloqot va yozma savodxonlik madaniyatini shakllantirishdan iborat. O‘quvchi yaxshi gapirish bilan bir qatorda yaxshi so‘zlashni ham o‘rganishi lozim. Biroq, songgi paytlarda o‘quvchilarning yozma ishlari biroz oqsayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Masalani 9-sinflar misolida ko‘rib chiqamiz. 9-sinfi o‘quv jarayonida hal qiluvchi bosqich sanaladi. Bu davrda o‘quvchilar tayanch o‘rta ta'limni yakunlab, o‘zlarining dunyoqarashini, ilmiy-nazariy bilimlarini yozma nutq orqali to‘laqonli namoyon etishlari talab etiladi. Biroq, amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 9-sinf o‘quvchilarining yozma nutqida leksik-grammatik xatolar, fikrning izchilligi buzilishi, stilistik me'yorlarga rioya qilmaslik holatlari uchrab turibdi. Bu esa "O‘zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan sifatli ta'lim muhitini yaratish talablaridan kelib chiqqan holda, yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishning yangi, samarali metodik tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yozma nutq — murakkab psixologik va lingvistik jarayon bo‘lib, u fikrni grafik belgilar yordamida to‘g‘ri, tushunarli va ta'sirchan yetkazib berishni talab qiladi.2 9-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyati faollashgan davrida yozma nutqni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslarida yozma nutqni o‘stirish quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

• **Leksik boylikni oshirish:** O‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, sinonim, antonim va omonimlardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatish

1 Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 45-b.

2G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 320-b.

• **Grammatik va sintaktik tuzilish:** Qo‘shma gaplarning turlari, tinish belgilarining ishlatilish qoidalari va matn tuzish qonuniyatlarini o‘zlashtirish

• **Uslubiy savodxonlik:** Matnning muomaladagi vazifasiga ko‘ra (rasmiy, badiiy, ilmiy, publistik) uslubiy xususiyatlarini farqlay olish

Ko‘plab olimlar yozma nutqni rivojlantiruvchi metodlarni taklif qilgan jumladan:

• **Esse yozish texnologiyasi:** O‘quvchining shaxsiy munosabatini shakllantiruvchi esse janri ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi3 .

• **Klaster va 'Aqliy hujum' metodlari:** Matn tuzishdan oldin reja tuzish va g‘oyalarni tartibga solish bosqichida qo‘l keladi.4

Grammatika: Grammatik qurilmalarni yaxshi bilishi bolaning gaplarni to‘g‘ri tuzishda va yozuvda har qanday xatodan xoli yozisgfa yordam beradi.5

Ushbu an’anaviy usullarda o‘qigan o‘quvchilar orasida o‘tkazilgan pedagogik kuzatishlar va so‘rovnomalar 9-sinf o‘quvchilarining yozma ijodiy ishlarida quyidagi qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

• **Fikrni mantiqiy izchillikda bayon etishdagi uzilishlar:** O‘quvchilar ko‘pincha kirish, asosiy qism va xulosa qismlarini bir-biriga bog‘lashda qiynaladilar.

• **Imlo va punktuatsiya xatolari:** Murakkab sintaktik qurilmalarni yozishda tinish belgilarini qo‘yishda xatolar kuzatiladi.

• **Leksik cheklanganlik:** O‘xshatishlar, metaforalar va ta'sirchan so‘zlardan kam foydalanish, matnning bir xil qolipda qolib ketishi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

3Jumaniyozova M. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish yo‘llari. // Ta'lim va tarbiya jurnali, 2024. – №2. – B. 45-48.
4 Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 172-b.
5 G. Muhitdinova. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi.// Tamaddun nuri. 2024. – 57 – 6 b

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or yondashuvlarni dars jarayoniga tatbiq etish yozma nutqni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda.

O‘quvchilarning yozma nutq savodxonligini oshirish maqsadida maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich (Tayyorgarlik): Berilgan mavzu bo‘yicha lug‘at boyligini to‘plash va kalit so‘zlarni aniqlash.

2-bosqich (Qoralama): Fikrni erkin bayon qilish, grammatik va uslubiy qoidalarga e'tibor qaratgan holda dastlabki matnni yaratish.

3-bosqich (Tahrir va tahlil): O‘quvchining o‘z matnini qayta o‘qib chiqishi, tayyor matnni sun’iy intellekt yoki maxsus botlar orqali tekshirish.

4-bosqich (Yakuniy xulosa): Natijalar orqali qayerda qanday xatoga yo‘l qo‘ygani va nima uchun xato sifatida olinganini bilib olish.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu tizimli yondashuv qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning yozma ishlari sifati 25-30 foizga oshgan, xatolar soni kamayib, matnlar mazmunan boyigan. Yozma ishlarni tekshirishda o‘qituvchilarning ham vaqti sezilarli darajada kamaygan.

Xulosa qilib aytganda, 9-sinf o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini takomillashtirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u o‘quvchining umumiy intellektual darajasini belgilaydi. Dars jarayonida ijodiy yondashuvlarni, zamonaviy metodlarni va interfaol topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘z fikrlarini yozma ravishda erkin, boy va savodli bayon etishlariga zamin yaratadi. Bu esa kelgusida ularning mustaqil hayotga va imtihon jarayonlariga puxta tayyorlanishini hamda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan intellektual salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy texnologiyalar orqali yozma nutqni rivojlantirish samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 45-b.

2. G. Muhitdinova. Yozma nutqni rivojlantirish metodikasi.// Tamaddun nuri. 2024. – 57 – 6 b

3. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 320-b.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 172-b.

5. Jumaniyozova M. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish yo‘llari. // Ta'lim va tarbiya jurnali, 2024. – №2. – B. 45-48.